

301
A
Alisabi Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:28 (67193)
2018-yil 9-iyul

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» TANLOVIGA



SUU – MO'JIZA

Suv barcha tirik jonzoatga kuch ato etuvchi mo'jiza. Hovlimizda yetmishdan ziyod katta tuvaklarda gullarni o'stirib, parvarishlaymiz. Ularga o'z vaqtida suv quymasak, suvsizlikdan azob chekayotganini ko'rishimiz mumkin. Tabiatning yashnashiga, insonlarning sog'-salomat kun kechirishi uchun obihayot kerak ekaniga ko'p bora amin bo'lganman.

Yaqinda mahallamizda ikki kun suv bo'lmay qoldi. Bu bebaho ne'matni qo'shni mahalladan tashib olib keldik. Shunda men yana bir bora tabiatning betakror in'omlarini qadrlash zarurligini angladim. Jo'mrakdan oqib turgan suvni har doim yopib yurishni ukalarim-u do'stlarimga

uqtirdim. Mahallamizning boshida «Katta Qorasuv» kanali oqib o'tadi. Ba'zida tengdoshlarimning ana shu kanalga chiqindilar tashlashayotganini ko'raman. Va har gal ulardan bebaho ne'matni ifloslantirmasliklarini iltimos qilaman. Zero, gazetada e'lon qilingan mazkur tanlov meni boy-

liklarimizni bolalikdan asrashga va uning himoyachisi bo'lishga undadi.

Mumtozabonu FAXRITDINOVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Ertasini o'ylagan mamlakat
yoshlarini e'tiborsiz qoldirmaydi.

Farzandni gulga
qiyoslaydi xalqimiz.

Gulni parvarishlash esa bog'bondan katta e'tibor va yuksak mas'uliyat talab etadi. Mamlakatimizda ertamiz egalari - yoshlar tarbiyasi, ularning kelajagi nurli bo'lishida keng imkoniyatlar yaratish bugungi kunning muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

BAXTLI KELAJAKNI SOG'LOM VA BARKAMOL AVLODGINA QURA OLADI...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 4-iyul kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi yoshlar bilan manzilli va tizimli ishlash, ular uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlandi.

Yurtboshimiz o'z nutqida hozir-da yoshlar bilan ishlashda hamon kamchiliklar kuzatilayotgani, Yoshlar ittifoqi yoshlar bilan manzilli va tizimli ishlashga, ularning muammolarini hal etishga yetarlicha e'tibor bermayotganligi, mazkur tashkilot o'tkazayotgan tadbirlar dabdababozlikka aylanib qolayotganini ta'kidladi. Shuningdek, joylardagi 4 sektor rahbarlarining aksariyati hali yoshlar masalasi bilan faol shug'ullanmayotgani, ichki ishlar idoralari, mahalla qo'mitalari, boshqa jamoatchilik tashkilotlari va ta'lim muassasalarining bu boradagi ishlari qoniqsiz bo'lib, tuman va shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosarlari, tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari jonbozlik ko'rsatayapti, deb bo'lmasligini aytib o'tdi. Oqibatda, yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik sodir bo'lishining oldi olinmayapti. Joriy yilning o'tgan davrida sodir etilgan 17,5 ming jinoyatning qariyb 31 foizi yoshlar hisobiga to'g'ri kelishi, mamlakat bo'yicha jinoyat sodir etgan 22 ming shaxsning 11 ming nafarini yoshlar tashkil etib, bu ko'rsatkich Andijon, Buxoro, Samarqand, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahrida, ayniqsa, yuqoriligicha qolmoqda. Achinarlisi, Xorazm, Andijon, Namangan, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida voyaga yetmaganlar tomonidan qotillik jinoyatlari sodir etilgan. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida Toshkent shahrida boshqa viloyatlardan kelib, qarovsiz va nazoratsiz yurgan 1 ming 700 ga yaqin voyaga yetmaganlar aniqlangan, ularning 500 nafari maktab o'quvchilari ekanligi bizni tashvishga soladi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilishimiz kerakligini aytib o'tdi. Ayni vaqtda, yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga faol jalb qilish uchun sharoit yaratish, ularni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislik va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish bo'yicha Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani va Toshkent shahrining Chilonzor tumanida yangi tizim sinovdan o'tkazilmoqda. Buning uchun mutasaddi idoralari vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilib, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar

to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan tuman pasportlari ishlab chiqildi.

Yig'ilishda yoshlarning turli oqimlar va yot g'oyalar ta'siridan asrashda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarni yanada jonlantirish, ularni muzey, teatr va boshqa madaniy-ma'naviy maskanlar, sport musobaqalari, ilm-fan, amaliy san'at to'garaklariga faol jalb etish orqali bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishini tashkil etish zarurligi alohida ta'kidlandi. Shu bilan birga, voyaga yetmagan qizlar o'rtasida erta turmush va tug'ruqlar soni ko'paygani bilan bog'liq muammolar ham muhokama qilindi. Ushbu muammolarda ko'proq ota-onani aybdor qilamiz. Aslida, bu kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirmaslik uchun oldindan manzilli ishlash tizimini joriy etish vazifasi topshirildi.

Biz pedagoglar o'quvchilarimizga chiroyli ta'lim-tarbiya berib, oilaviy ahvoli og'ir bolalarni moddiy va ma'nan qo'llay olsak, kutilgan natijaga erishamiz. Bu borada Prezidentimizning tashabbuslari dasturulamal bo'lishi, shubhasiz.

Dilfuza JO'RAYEVA,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq
tumanidagi 5-umumta'lim makta-
bining o'quv va tarbiyaviy ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari



BEHZODNING IZDOSHI

Dunyo tasviriy san'ati tarixida musavvir-
lar sarvari, Sharq Rafaeli nomlari bilan
shuhrat qozongan Kamoliddin Behzod
Xuroson-u Movarounnahrda miniatyura
janrini mavzu, obrazlar tizimi, g'oyaviy
yo'nalishi, badiiy qudrati jihatidan yangi
taraqqiyot cho'qqisiga olib chiqqan cheh-
rakushodir.

Bugina emas, Behzod tabiat tasviri, inson qiyofasi - portreti, jang-u jadal-
lar, kiborlar suhbatini ranglar orqali jonlantirishda ham o'ziga xos maktab
yaratgan. XV asrdan keyingi zamonlarda Mashriqzamidanda kamol topgan
barcha rassomlar bevosita yoki bilvosita Behzod shogirdlari, izdoshlari
hisoblanadilar. Muhammad Murod Samarqandiy ana shular jumlasidan.

Bo'lajak atoqli rassom, tashkilotchi ustoz Muhammad Murod Samarqandiy XVI asrning oxirgi choragida tug'ilgan. Mahalla maktabida xat-savodini chiqqan Muhammad Murod xususiy muallimlardan husnixat, kitob bezash hamda naqqoshlik bo'yicha dars oladi. Ulug'bek madrasasida o'qib, zamonasidagi barcha bilimlarni mukammal egallaydi. Madrasa xatmidan so'ng musavvir kitob ko'chirish, ularni rangli suratlar, naqshlar bilan bezay boshlaydi. Ammo rassomning tabiatni, jonzotlar-u sarbozlarning ko'rinishi, inson portretini bokira tarzda chiza boshlaganini ko'rgan mutaassib ruhoniylar uni ta'qib eta boshlaydilar. Natijada, Behzodning miniatyura maktabini to'la o'zlashtirib ulgurgan Muhammad Murod Samarqandiy do'sti Muhammad Nodir bilan maxfiy tarzda Hindistonga hijrat qilishga majbur bo'ladi. Boburiy hukmronlar homiyligida Dehli va Agra shaharlarida umrguzaronlik qiladi. Agradada Muhammad Nodir bilan hamkorlikda miniatyura maktabini tashkil etadi. Keyingi asrlarda hind tasviriy san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shgan Basrant, Bihashi, Gujaraty, Ibrohim Qahhor, Banvari Xurd, Qurvan, Suri Gujaraty, Rom Das singari ulkan musavvirlar bevosita Muhammad Murod Samarqandiy shogirdlaridir. Musavvir XVII asrning birinchi choragida Dehli'da vafot etgan.

Rassom ijodi manzara, portret, miniatyura janrlarida Behzod an'anasini muvaffaqiyatli davom ettirdi, o'nlab kitoblar, jumladan, Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlarini yuzlab miniatyuralar bilan bezagan. Uning asarlari Parij, Sankt-Peterburg, Dehli, Toshkent muzeylarida saqlanmoqda. Sharqda Muhammad Murod Samarqandiy asarlari eng ko'p saqlanib qolgan musavvir hisoblanadi. Ilm-fanda ulardan 200 dan ziyodi aniqlangan. Hatto ba'zi san'atshunoslar Boburiylar imperiyasi albomidagi ayrim shahzodalar portreti ham Muhammad Murodga mansub, degan xulosaga kelishgan.

Muallifining buyuk Firdavsiyning «Shohnoma»siga chizilgan 115 ta miniatyurasi ham betakroridir. Chunki ularda har bir doston mazmuni, g'oyasi ranglar orqali g'oyat go'zal tarzda o'z ifodasini topgan. Qahramonlar qiyofasi, tabiat manzarasi nafis va nihoyatda mukammaldir.

Hamyurtimiz Muhammad Murod Samarqandiyning hayoti, ijodiy faoliyati jiddiy o'rganish va targ'ibot etishga arziqlik merosidir. Chunki u Behzoddan so'ng, tasviriy san'atning rivojiga eng ko'p va xo'p asarlari bilan katta hissa qo'shgan san'atkor hisoblanadi.

Hamidjon HOMIDIY,
filologiya fanlari doktori, professor

«BILIM» DAGI TAQDIMOT

Azizbek internetdan oqilona foydalanish lozirligini juda yaxshi biladi. Bir kuni u GUJUM.UZ (Gujum - dumaloq yer shaklidagi, sersoya, barglari nafis daraxt) saytida e'lon qilingan «Siz o'z huquqingizni bilasizmi?» nomli tanlov bilan tanishib, unda ishtirok etdi.

Poytaxtimizning «Bilim» axborot-kutubxona markazida tashkil etilgan «Oila madaniyati - yurt tinchligi» mavzusidagi tadbirda mazkur saytning taqdimoti bilan bir qatorda unda e'lon qilingan tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. G'oliblar safidan o'rin olgan tengdoshingiz Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali talabasi Elyor Palvonov va singlisi Gulyor faxriy yorliq va kitoblar bilan taqdirlandi. Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 20-umumta'lim maktabi o'quvchisi Azizbek Adhamov va Chilonzor tumanidagi 182-umumta'lim maktabi o'quvchisi Nilufar Mo'minova ham g'oliblar safidan o'rin egallashdi.

Markaz esa yurtimizda bolalar, yoshlarning mutolaa madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadida navbatdagi «Ahl oila maktabi» loyihasini amalga oshirishini ma'lum qilib, barchani faollikka chorladi.

S. QODIROVA

SIRDOSHINGIZ KIM?

Har bir insonning o'z siri bo'ladi. Sir saqlashlik esa dur-u javohirlar to'la xazinani qo'riqlashday mas'uliyat talab etadi. Ulug' alloma Abu Ali ibn Sino o'z asarlaridan birida «Agar siringni saqlasang, u sening asiringdir, agar oshkor bo'lsa, sen siringning asiri bo'lib qolasan», deya aytib o'tgan edi. Ushbu so'zlar orqali inson o'z sirini o'zgararga aytmasligi, birovlar bilgani esa sir emasligini anglash mumkin.

Inson nafaqat o'zining, balki unga ishonib aytilgan har bir sirni saqlay olishi lozim. Sirlar fosh bo'lsa, qancha-qancha aytilgan va aytilmagan yomon gaplar buloqday qaynab chiqib boshlaydi. Sirlari fosh bo'lgan inson esa xazinasi talon-taroj bo'lib, xonavayron bo'lgan odamdan ham yomonroq holga tushib qoladi.

Aksariyat insonlar o'z sirini yaqin do'stiga ishonib aytadi. Ammo do'stining ham boshqa yaqin do'stlari bor... Shunday qilib, u insonning siridan barcha xabardor bo'ladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimizdan qolgan yaxshi bir an'ana borki, qizlar sirlarini onalariga, o'g'il bolalar esa otalariga aytishgan. Dunyodagi eng ishonchli insonimiz, eng yaqin do'stimiz ota-onalarimizgina bizlarni sirimizni saqlay olishadi. Ota-ona bilan sirlashishning yana bir afzallik tomoni – ular o'rtasidagi munosabatlar ham shu orqali mustahkamlanadi va o'rtadagi ishonch yanada ortib boradi.

Shahzoda MIROBIDOVA,
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi
214-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Joriy yil aniq fanlardan
o'tkazilgan iqtidorli
o'quvchilarning innovatsion
olimpiadasida maktabimizning
iqtidorli o'quvchilaridan
Jahongir Bahodirov fizika fani
bo'yicha ishtirok etib, g'olib
bo'ldi.

MAKTABIMIZ FAKRI

G'oliblarga Xalq
ta'limi vazirligi tomo-
nidan esdalik sovg'alar
topshirildi.

– Jahongir boshqa teng-
dosh do'stlaridan ravon
fikrlashi bilan ajralib turadi.
U bilan ishlash menga ma-
roqli, – deydi ustoz Nuriddin
Husanov.

Jahongir kelajakda yetuk
fan arbobi bo'lishiga isho-
naman.

Mavjuda SOLIYEVA,
Andijon viloyati,
Baliqchi tumanidagi
38-DIMI
o'qituvchisi

ASLIDDIN I DARAJALI DIPLOM OLDI

Sinf doshim Asliddin Fayzullayev fizika-
matematika fanlariga juda qiziqadi. U
5-sinfdaligidayoq murakkab matematik
amallar, fizik masalalar bilan alohida
shug'ullana boshladi.

2017-yil Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida
fizika-matematika fanlari bo'yicha o'tkazilgan olim-
piadada Asliddin 3-o'rinni egalladi. Joriy yil bo'lib
o'tgan fan olimpiadasida esa tumanda 1-o'rinni qo'lga
kiritdi. Shuningdek, O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan o'tkazilgan innovatsion olimpiadaning
respublika bosqichida fizika fanidan ishtirok etib,
I darajali diplom bilan taqdirlandi.

– Erishtgan muvaffaqiyatlarimda ustozim Anvar
Umarov hamda ota-onamning hisssasi katta. Kelajakda
yurtimga foyda keltiradigan inson bo'lishga, yaqinlarim
ishonchini oqlashga harakat qilaman, – deydi Asliddin.

Darvoqe, bu iqtidorli tengdoshim fortepiano chalish
sirlarini ham mukammal egallagan. U bo'sh vaqtlarida
rasm chizish, kitob o'qishni yoqtiradi. Biz Asliddin
sinf doshimiz bilan faxrlanamiz.

Laylo ESONMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
5-umumta'lim maktabi o'quvchisi

O'YINCHOQLAR FABRIKASIDA

Bolaligin-
gizda sevib o'ynagan o'yinchoq-
laringiz qayerda va qanday ishlab chiqaril-
gani haqida bilishni istaysizmi? Bu mo'jizalar
olami qayerda ekan-a? Bugun barcha savollarin-
gizga javob topish maqsadida Toshkent o'yin-
choqlar fabrikasi tomon yo'l oldik.

Xabaringiz bo'lsa, yaqindagina
mazkur maskanga Prezidentimiz
Shavkat Mirziyoyev ham tashrif
buyurib, siz aziz bolajonlar uchun
bundan ham chiroyli va chet
elnikidan qolishmaydigan sifatli,
arzon o'yinchoqlarni ishlab chiqa-
rishni tayinlagan edi. Fabrikaga
kirib borar ekanmiz, Yurtboshimiz
aytgan ishlar jadallik bilan amalga
oshirilib, bo'limlarda ish-qiziga-
nidan-qiziganining guvohi bo'ldik.
Shunday bo'lsa-da, fabrikaning
eng yosh ishchilaridan biri Botir
Nurmuhammedovni suhbatga
chordladik.



sevimli o'yinchoq'ingning
qanday tayyorlanishini bir
ko'rsam edi...», deya yotgan
bo'lsangiz, maqolani o'qishda

– Yengil sa-
noatga ixtisos-
lashtirilgan
kasb-hunar kolle-
jida o'qib, fabrikada ish
boshladim. Dastlab, jarayon-
lar bilan tanishib, u-bu ishlarda
ko'maklashib yurdim. Hozirda har
kuni turli o'yinchoqlarning yasa-
lish jarayonida bevosita ishtirok
etmoqdaman, – deydi o'z ishidan
mamnun bo'lib Botir akangiz.

Ha, Botirjonning fikrlarini o'qiy
turib, siz ham «Qani endi men
ham bu ajoyib maskanga borib,



davom eting. Biz sizga
yetarlicha ma'lumot
berishga harakat qila-
miz. Shunday qilib,
endi korxonaning rah-
bar-u faoliyati bilan
ham tanishib olsak.

«Oyinchoqlar fabrikasi» mas'u-
liyat cheklangan jamiyati rahbari
Bahodir aka Mardonbekovning
aytishlaricha, korxonada bugun-
gi kunda Xitoydan olib kelingan

uskunalarda 270 xil turdagi o'yin-
choqlar ishlab chiqarilmoqda.
Bulardan bolalarga ma'lum va
mashhurlari: monopoliya, tank,
kamaz va turli mashinalar, lego
konstruktordir. Korxonada bir
yilda o'rta hisobda uch millionga
yaqin o'yinchoqlar tayyorlanadi.
Sizning sog'lig'ingiz uchun xavfsiz
va chiroyli ko'rinishdagi o'yinchoqlar
polimer plastik nomli mahsulotdan
yasaladi.

Ezgu niyat bilan tayyorla-
nayotgan sevimli ovunchoqlar,
aqli jihatdan rivojlantiruvchi
o'yinchoqlar uka-singillaringizni
quvontirishi aniq.

Sayyora QODIROVA

Vaqt aqlliroq, yaxshiroq, yetuk va mukammal bo'lib yetishishimiz uchun bizga in'om etilgan qimmatbaho sovg'adir.

T. MANN

«YOSHLIK»DA KECHGAN TA'TIL

Farg'ona viloyatining Furqat tumanida joylashgan «Yoshlik» bolalar sog'lomlashtirish oromgohining ikkinchi mavsumiga 102 nafar bolajonlar qabul qilindi.

«Bolalik», «Yoshlik» va «Omad» guruhlariga jalb qilingan dam oluvchilarning yozgi ta'til davrining qiziqarli sarguzashtlarga boy kechishini ta'minlashda tarbiyachilar astoydil mehnat qilmoqdalar.

Yaqinda tarbiyalanuvchilar «Biz gijohvandlikka qarshimiz» mavzusida teatrlashtirilgan sahna ko'rinishi namoyish etishdi. Bolajonlar ijro etgan obrazlari orqali tengdoshlarini kitob o'qishning foydasi, hunar o'rganishning xosiyatlari haqida tushuncha berdilar. Shuningdek, dam olish maskanida «Oromgoh shahzodasi» va «Oromgoh malikasi» tanlovlari tashkil etilgan.

Tumandagi 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi Jasurbek Mavlonov «Iste'dodlarni izlaymiz» tanlovida ajoyib qo'shig'i bilan g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qiziqarli bahslarga boy bo'lgan «Quvnoq startlar» sport musobaqasida «Burgutlar», «Lochinlar», «Humo» va «Qaldirg'och» jamoalari o'zaro bellashib, «Qaldirg'och» jamoasi 1-o'rinni egalladi.

2-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Abdulloh Murodov, 33-umumta'lim maktabining 6-sinfidan Shodiyorbek Hoshimov, Qo'qon shahar 2-umumta'lim maktabi 4-sinf o'quvchisi Mo'minjon Anvarovlar shashka va shaxmat musobaqasida birinchilardan bo'lishdi. She'riyat kechasida ishtirok etgan sakkiz nafar ijodkor qizlar orasida 34-DIUM 7-sinf o'quvchisi Mushariyxon Mamasoliyevaga teng keladigani topilmadi.

– Yozgi ta'tilni ko'tarinki kayfiyatda o'tkazgan o'quvchi yangi o'quv yilida ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishi tajribada sinalgan, – deydi oromgoh rahbari Nosirjon Madaliyev va bosh yetakchi Nigoraxon Xolmurodova. «Yoshlik»da kechgan ta'til yuksak marralar garovi bo'lishiga ishonamiz!

«NAFOSAT» HAR YO'NALISHDA FAOL!

Qo'qon shahridagi 12-Mehribonlik uyiga qarashli «Nafosat» yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohida tarbiyalanuvchilar maroqli dam olmoqdalar.

Yaqinda Qo'qon davlat pedagogika instituti «Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabalari «Quvonch elchilari» guruhi tomonidan «Bolalik – beg'uborlik» mavzusida qiziqarli tadbir uyushtirildi. Oliyog'ning xorijiy filologiya yo'nalishi talabalari tomonidan «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar» kechasi o'tkazildi.



Kuni kecha shaxmat bo'yicha bo'lib o'tgan musobaqada «Mardlar» nomli 2-guruh tarbiyalanuvchisi Samandar Imomaliyev 1-, Zayniddin Norqo'ziyev 2-, «Sog'lom avlod» nomli 4-guruh tarbiyalanuvchisi Islom Jo'rayev 3-o'rinni egallashdi.

Ertasi kuni o'tkazilgan «Quvnoq estafeta» sport musobaqasida «Begoyim» katta yoshli qiz bolalardan iborat «Lochinlar» jamoasi hamda «Kamalak» nomli 5-guruh qizlari «Qaldirg'ochlar» jamoasi bilan bellashdi. «Lochinlar» g'oliblikni qo'lga kiritdi.

«Kamalak»chilar ikki jamoa – «Chaqqonlar» va «Epchillar» jamoasiga bo'linib, 5 ta shart bo'yicha «Quvnoq startlar» musobaqasida bellashdi. «Chaqqonlar» jamoasi 23:18 hisobida raqib komandadan ustun keldi.

«Balli, qizlar!» ko'rik-tanlovida «Begoyim» guruhi a'zosi Shahrizoda Anorova 1-o'rinni egalladi.

Nurbek QIDIRALIYEV

HORDIQ MAZMUNI BILAN QADRLI

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 22-umumta'lim maktabida «Lochin» sog'lomlashtirish maydonchasi bolajonlar bilan gavjum. Ayniqsa, kutubxonachi Dilfuza Kamolova bolalarga turli qiziqarli kitoblarni tanlashda yaqindan ko'makchi bo'lyapti. «Men sevgan qahramon», «Bir asar tarixi», «Men sevgan ertak» kabi mavzulardagi tadbirlarda bolajonlar faol ishtirok etyapti.

– Kuni kecha dam oluvchilar bilan tabiat muzeyiga sayyohatga bordik, – deydi maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosari Gulbahor Zafarova.

O'quvchilar ko'rgazmadagi o'simliklar va hayvonot dunyosiga doir eksponatlar va suratlarini diqqat bilan tomosha qilishdi. Shu kuni tuman hokimiyati xodimlari muzeyga kechib, tadbir ham o'tkazdi. Oromgohda o'tkazilayotgan turli tadbirlarda faol qatnashganlar shu yerning o'zida tantanali ravishda taqdirlandi.

«Yurt kelajagi yoshlar qo'lida», «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» mavzularida asfaltga rasm chizish musobaqasi bo'lib o'tdi. Bu tanlov orqali bolalar Vatan, Milliy armiyamiz haqidagi tasavvurlarini chizgilarida namoyon etdilar. Laziza Karimova, Ibrohim Qahramonov, Mavjuda Zafarovaning chizgan rasmlari bolajonlarga manzur bo'ldi.

«Quvnoq startlar» musobaqasida «Kitobxonlar», «Yangi avlod», «Yulduzchalar», «Oftobjon» guruhlarini ishtirok etib,

«Yangi avlod» guruhi 1-, «Yulduzchalar» 2-, «Oftobjon» guruhi 3- hamda «Kitobxonlar» guruhi 4-o'rinni egallashdi. G'olib guruhlariga maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va sovg'alar berildi.

– Kitob o'qish jon-u dilim, – deydi oromgohda dam olayotgan 3-sinf o'quvchisi



Ibrohim Qahramonov. – Buvijonim turli ertak kitoblari olib beradilar. Oromgohda dam olishimizga sharoit yaratib bergan barcha ustozlarimizga o'z minnatdorchiligimni bildiram.

Nodira NAZAROVA

OROMGOH TO'GARAKLARIDA...

Angren shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 14 ta umumta'lim maktablari hamda 34-, 73-maktab-internati qoshida kunduzgi oromgohlar tashkillashtirildi. Mazkur oromgohlar 1-, 2-, 3-navbatda ish faoliyatini olib borishi rejalashtirilgan. Har bir navbatda 950 nafar o'quvchilar oromgohlarga jalb etilgan. Barcha oromgohlarda vasiylikka olingan, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari ham qamrab olingan.

Ushbu oromgohlar tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar, tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Ma'naviyat-ma'rifat xonalari, shuningdek, kutubxonalar kerakli adabiyotlar, gazeta va jurnallar bilan to'liq ta'minlangan.

Oromgohlarda bolalarning qiziqishlari va iqtidorlari bo'yicha «Musiqasevarlar», «Kompyuter savodxonligi», «Mohir qo'llar», «Sport», «Yosh kitobxonlar», «Ingliz tili», «Rus tili» to'garaklari faoliyat olib bormoqda. To'garaklarda dam oluvchilar «Do'stlik taronalari», «Ijodkor yoshlar», «Yosh ijrochilar», «Yosh shoir» tanlovlari, «Tong yulduzi» gazetasi, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari sahifalaridagi maqolalar, xabarlar bilan tanishish, «Quvnoq ustalar mamlakatiga sayohat» yosh ijodkorlarning ko'rgazmasi, «Milliy xalq o'yinlari» festivali, turli sport musobaqalari, «Do'st bilan obod uying», «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!», «Yoz – o'tmoqda soz!» mavzularida suhbatlar, «Balli, qizlar!», «Balli, yigitlar!», «Kim epchil-u kim chaqqon!», «Kelajak g'unchalari» musobaqalari tashkil etilmoqda.

O'z muxbirimiz



Lesson 28

THE ELDEST ENEMY



Luqmoni Hakim was asked:
 - What is the eldest enemy for people?
 He answered:
 - It is passion.

Dictionary
 Passion - nafs.
 Enemy - dushman.

Translated by Sarvinov NAZAROVA,
 the pupil of lyceum Uzbek State World
 Languages University

«...TRUE» GAME

A period of time following the moment of speaking -
 What is it including plants, animals, and the landscapes and other features products of the earth -
 An unusual experience -
 Take into one's possession -
 A painting -
 Water liquid diffused in a small quantity -
 A person's natural height -



fu..., adven...,
 cap..., pic..., sta..., moist..., na...

INTERESTING INFORMATION

WHAT DOES YOUR BIRTHDAY DATE SAY ABOUT YOUR CHARACTER?

5, 14, and 23 - You are adventurous!
 You are an adventurous type of a person, and it clarifies why you are always getting into trouble.
 7, 16, and 25, 28 - You are spiritual!
 You are thinking a lot about the universe and its creation, and you may have loved all the philosophy classes in the college.
 9, 18, 27, 29 - You are a family person!
 You are over protective, caring when it comes to your family. A complete family person.

2, 6, 15, and 24 - You are smart and logical!
 You are smartest person in the group. Also you are logical and one with logical approach. You always know what to do.

8, 11, 17, 26 - You are all business!
 You are good with money and finances. Many people will call you bossy, just because you are really good at business.

4, 13, 22, 31 - You are a hard worker!
 When someone compliments our hard work, you just tell them that you were born on some of these dates.

3, 12, 21, 30 - You are ultra creative!
 Art is your other name. You are so creative and you should not ignore it. Try to make it your career.



IDIOMS ABOUT FRUITS

Let's match the suitable definition.

Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV



1 A bite at the cherry	A To fail
2 As red as a cherry	B An opportunity to achieve something
3 Go pear - shaped	C A person who is able to remain clam
4 A plum job	D Of two different classes, not comparable
5 Cool as a cucumber	E Life is going well
6 The apple of your eye	F The person who you are very fond of
7 Apple and oranges	G To become very angry
8 Go bananas	K Very good job
9 Peach and cream	G Very red

1-B, 2-..., 3-..., 4-..., 5-..., 6-..., 7-..., 8-..., 9-...

From internet materials by Ma'mura G'ULOMOVA

Fill in the blanks and answer the questions

1. Look at them Are they mice? -
 No, they are not. They are fish



2. Look at him. Is he a magician? - ...



3. Look at them. Are they a singers? - ...



4. Look at them. Are they eggs? - ...




5. Look at them. Are they bears? - ...



Dinora ABDULLAJONOVA

MATHEMATICAL SUM

Aziza has 50000 sums. She gave the half of money to her brother Jalol. He went to the shop. Jalol bought a drawing book to the part of 1/5 of money. Then he bought a copybook to the 1/10 part of the rest of the money. Jalol spent the 1/3 part of the rest of the money for a book. Then he bought the color pencils to the 1/4 part of remained money. Finally, Jalol bought a ruler to the 1/6 part of remained money.



Questions.
 1. Well, how much money did Jalol have?
 2. How much money did he have in the end?

We will help you
 1. The half of the 50000 = 25000;
 2. 25000 : 5 = 5000, remained 20000;
 3. 20000 : 10 = 2000, remained 18000;
 4. So, continue the math question.

Dinora BEGDULLAYEVA,
 the pupil of academic lyceum of Karakalpak State University

UCH OPA-SINGILMIZ

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari! Men Farg'ona viloyatining Qo'shtepa tumanida yashayman. Shu kungacha tuman, viloyat miqyosida o'tkazilgan tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etyapman. Jumladan, «Eng yaxshi kitobxon» tanlovining viloyat bosqichi g'olibasi bo'ldim. «Eng yaxshi she'r muallifi» tanlovining viloyat bosqichida 3-, «Kamalak» yulduzlari ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni egalladim. Biz oilada 3 opa-singilmiz. Opam - Shohida Omonova «Yuksak ma'naviyatli avlod» tanlovining tuman bosqichi g'olibasi bo'ldi. Singlim Shoiraxon ham she'r yozadi. Lekin uning ajoyib bir qobiliyati ham bor. U biz yozgan she'rlarni bir zumda teskarisidan o'qiy oladi. Uchalamiz ham qalbimizda jo'sh urayotgan his-tuyg'ularni she'r orqali ifodalashga intilamiz. Opam Shohida onaga bo'lgan mehri qayidagi satrlar orqali ifodalaydi:

Ona, yuragingiz olovmi, o'tmi,
Bag'ringiz mehrimni chorlaydi har on.
Sochlarim o'rasiz qirq kokil qilib,
Siz aytgan allalar yangraydi hamon.
Siz yashaysiz sodda singlimning,
Bolalarcha tilaklarida.
Siz yashaysiz farzandlaringiz,
Urrib turgan yuraklarida.

QUYOSH

Erta tongdan jilmayib,
Quyosh nurini sochdi,
O'rtoqlarim quvonib,
Derazalarni ochdi.
Zarrin nurlar tovlanib,
Hamma-hammaga yoqdi.
Gullar ifor taratib,
Quyosh tomonga boqdi.
Quyosh, quyosh, quyoshjon,
Seni sevadi barcha.
Kel, dugona bo'laylik,
Senga mehri bo'lakcha.



Shoiraxon OMONOVA,
20-umumta'lim maktabining
4-«B» sinf o'quvchisi

KO'KSIMDAGI YURAGIM ONA!

Ko'zingizda porlagan quyosh,
Ona - dilning mehr o'chog'i.
Masrurlikdan so'zlagan,
Yuragimning porloq mayog'i.
Yuzingizda kulgan baxt aksi,
Kulguchimning tilaklaridir.
Mehringizdan bunyod devorlar,
Ayoq qishning chechaklaridir.
Ona, tikkan do'ppilaringiz,
Yuragimga kiygizib olay.
Bahor qirdan lolalar termay,
Ko'zingizda gul bo'lib qolay.
Tovoningiz yoriqlaridan,
Oqib o'tar jannatning suvi.
Yuzingizda o'ynar kapalak,
Mehr degan jannatning guli.
Dunyodagi tirgagim Ona!
Ko'ksimdagi yuragim Ona!

Shohsanam OMONOVA,
20-umumta'lim maktabining
8-«A» sinf o'quvchisi



KOTIROTNING BEDOR KO'ZLARI

«O'n ikki yildirki, bobomsiz yashayapmiz.
O'sha paytlari men yetti yoshda edim.
Hayotimning mana shu yetti yilini hech
narsaga almashmayman. Buning iloji ham yo'q. Chunki bu
davrdan bolaligim chindan beg'ubor, ertak misol o'tishiga
sababchi bo'lgan bobom va buvijonim hayot edilar».

Ushbu misralar yosh ijodkor, Navoiy davlat pedagogika instituti akademik litseyining 3-bosqich o'quvchisi Dilshodaxon Olimovaning «Baxtut» deb nomlangan ilk kitobidan o'rin olgan.

Asar qahramoni - Navoiy viloyati, Navbahor tumani, Uchtut qishlog'ida tug'ilib o'sgan, o'zining ongli va yorqin hayotini ona Vatani-ga bag'ishlagan, Ikkinchi jahon urushidan sog'-omon qaytgach, qolgan umrini astoydil mehnat qilib, katta bog'-rog'lar yaratgan, solih farzandlar va nabiralarni tarbiyalagan, samimiy hamda kamtarin inson Olim bobo Hotamov hayot bo'lganida 100 yoshga to'lar edi.

Muallif o'z bobosi va uning mashaqqatlarga to'la nurli hayot yo'li haqida mehr-muhabbat bilan yozar ekan, oiladagi har bir ibratli, unutilmas voqealarda bobosining beqiyos o'rni borligini yorqin misollar orqali ko'rsatib bergan.

Kitobning «Zamondoshlar xotirasida mangu» bobi safdoshlari, do'stlari va hamqishloqlarining Olim bobo haqidagi yorqin xotiralari bilan yanada boyitilgan.

Olim bobo va Ro'zima buvi olti nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazgani hamda bu farzandlarning ota-onalari haqidagi bebaho xotiralarning yorqin sahifalarni kitobxon huzur qilib o'qiydi. Ayniqsa, farzand tarbiyasida Olim boboning ziynat to'la o'g'itlari bugun ham o'zining ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'ramiz. Xotira so'nggida taniqli shoir Olim Hotamning otasi Odil qori Hotam o'g'liga bag'ishlangan «Qo'llar» she'ri ham berilgan. Unda shunday satr bor: «Axir xotirotning bedor ko'zi bor»... Kitobda ana shu bedor xotirotning ko'zlari nurlanib turadi.



Nigora JO'RAYEVA

Kunlarning birida mitti sichqoncha onasidan so'radi:

- Oyijon, uyimizda yashaydigan odamlar juda ham mehribon bo'lishsa kerak-a? Aks holda, shuncha yaxshi narsalarni bizga qoldirishmagan bo'lardi, to'g'rimi?

Ona sichqon ko'zlarida xavotir bilan javob berdi:

- Endi meni diqqat bilan eshit, bolajonim. Hech shubhasiz, odamlarni yaxshi deb o'ylashning mumkin. Biroq, ularni yaqindan bilganingda, bu fikring, albatta, o'zgaradi. Ular juda ham xavfli. Shu sababdan tashqariga bemalol chiqa olmaymiz. Endi va'da ber: mensiz yoki ruxsatsiz tashqariga hech qachon chiqmaysan! Agar ular bizni ko'rib qolishsa bormi, tutib olishga urinishlari aniq...

Bu so'zlardan botir sichqoncha qattiq achchiqlanibdi. Chunki u o'zini o'zi himoya qila olishiga ishonchi komil ekan-da. «Axir butun umr onamning dumidan ergashib yurmayman-ku», xayolidan o'tkazdi sichqoncha. Onasining ko'zi ilingani-dan foydalangan sichqoncha inidan juftakni rostlabdi. U tashqari xona tokchasida sovhish uchun qo'yilgan katta pirogni ko'rib qoldi. Undan taralayotgan is sichqonchaning lablarini yalashga majbur qildi. Pirog ustida shakar bilan yozil-

gan qandaydir yozuv bo'lib, u Izel ismli qizaloqning tug'ilgan kuniga atalgandi. Lekin o'qishni bilmagan sichqoncha bu pirogning bayram dasturxonining bir bo'lagi ekanligini qaydan ham bilsin?

Mittvoy onasining ovozini eshitgandagina biroz sergak tortdi va aybdorligini his qilib, shu qadar tezlik bilan uyiga yetib bordiki, bu vaqtda onasi endigina uyqudan turib, ko'zlarini ishqalab turgan edi. Biroz vaqt o'tib, onasi sichqonchani o'zi bilan tashqariga olib chiqdi. Ular xonada yurishar ekan, ona sichqon pirogning kemirilgan joyini ko'rib, ajablendi.

- Ha, bizdan oldin bu yerda boshqa sichqon bo'lgani aniq, - dedi u o'g'liga qarab. Biroq ko'rib turgani kichintoyining ishi ekanligi uning xayoliga ham kelmasdi.

Ertasi kuni ona sichqon uxlayotganida, sichqoncha yana omborxonada paydo bo'ldi. U avvaliga xonadan yegulik topa olmadi. Axiyri, uning ko'zlarini kichkinagina yog'och uycha-

kim bizning bayramimizni barbod qilibdi», dedi va mitti o'g'rini ko'rish uchun yoqimtoy bir qizaloqni chaqirdi.

- Uni nima qilmoqchisiz? - so'radi Izel ayoldan.

- Kechagiga o'xshash voqealar boshqa takrorlanmasligi uchun uni yo'qotish kerak, oppog'im, - javob berdi oshpaz ayol.

- Axir bu ishni chindan ham u qilganligini bilmaysiz-ku. Balki u barini bilmasdan qilgandir? - dedi Izel.

Qizaloq gapirar ekan, uning chiroyli, moviy ko'zlarida yoshlar paydo bo'ldi.

- Yo'q, haqiqatan ham bilmagan edim, - dedi sichqoncha xomushgina chiyillab.

Oshpaz ayol bir zumgina chalg'ib ortiga o'g'irilganda, rahmdil qizaloq qopqon eshiklarini ochib yubordi. Sichqoncha ozodlikda edi! U sevimli uyiga qanchalar tez yetib borgani kunday ravshan. Ona sichqoncha toki farzandi qo'rquvi bosilguncha uning yonida bo'lib, uni erkaladi, quchoqladi. Keyin sichqoncha endi hech qachon onasining so'zlarini ikki qilmaslikka so'z berdi. O'zi esa boshqa o'g'rilik qilmaslikka ahd qildi.

Ingliz tilidan Muhammadsharif
FAYZULLAYEV tarjimai

OMBORDAGI MITTI O'G'RI

(Hikoya)



g a
tushdi.

Mazali pishloq bo'lagi uycha ichida osilib turardi. Sichqoncha pishloqqa tekkan zahoti, uycha eshiklari shaqillab yopilib, qahramonimiz qopqonga tushdi.

Kun yorishgach, xonaga qopqonni o'rnatgan oshpaz ayol kirib keldi. Uychani javondan olarkan, «Mana,

- Men Xorazm bulbuli Komiljon Otaniyozovning izdoshi bo'laman, - deydi Kamronbek Onarov.

Tahririyatimizda mehmon bo'lgan yosh iste'dod egalari Kamronbek Onarov va Salimbek Odilovning san'atidan barchamiz bahramand bo'ldik. Ayniqsa, Kamronbekning xushovozi hammaga birdek manzur bo'ldi. Xorazmcha kiyimi-yu qo'lidagi sozi o'ziga yarashib turgan yosh iste'dod egasining shu vaqtgacha erishgan yutuqlari, kelgusidagi orzulari haqida qiziqdik:

- Men poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 74-umumta'lim maktabida tahsil olish bilan birga, 27-Bolalar musiqa va san'at maktabiga ham qatnayman. Musiqa maktabida avvalo, rubob chalishni o'rgandim. Keyin ustozim To'rabek Shomurodov taklifiga ko'ra, tor chalishdan saboq ola boshladim. Bir yilda «Andijon polkasi», «Bahor vals», «Munjojot», «Lazgi», «Mustahzod», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Go'ro'g'li», «Tohir va Zuhra» singari dostonlarni kuylashni o'rgandim. O'tgan yili Komiljon Otaniyozovning 100 yillik yubileyiga to'yona sifatida «San'at quyoshi» qo'shig'ini tayyorlab, ijro etdim. San'at darg'asining xotirasiga bag'ishlab Namangandagi uyimizda muzeyi tashkil qildik. 2015-yilda Turkiya dav-

latida tashkil etilgan «Etenk sansin Turke» musobaqasida «Yor-yor» qo'shig'im bilan ishtirok etdim. Shuningdek, yurtimizda tashkil etilayotgan bayram tantanalarda qo'shiq aytib, el olqishini olmoqdaman. Kelgusida Olmaxon Hayitova, Faxriddin Umarov, Qalandar Baxshi, Hojiakbar Hamidov va Tavakkal Qodirov singari el suvgan ustozlar izidan borish, ularning yo'nalishida ijod qilish niyatidaman. O'zimning ijodimdan «San'at quyoshi», «Orzularim ohangi», «Kamronbek lazgisi» singari qo'shiqlarni kuylayman. Ta'til davrida yangi kuy-qo'shiqlar yaratish bilan birga



rus, ingliz hamda arab tillarini o'rganish niyatidaman. Ulg'aygach, otam singari harbiy shifokor bo'lish orzusidaman.

S a - l i m b e k Odilovning ham istaklari bisyor ekan:

- Men ham poytaxtimizning 74-umumta'lim maktabida o'qiyman. Uch yoshimdan doira chalaman. Ilk ustozim bobom bo'lganlar.

Do'stim Kamronbek bilan 2 yildan buyon turli tadbirlarda ishtirok etmoqdaman. Doira chalishning o'ziga yarasha murakkabliklari bor. Doira chalayotgan odam hozif bilan bir-birini bir qarashdayoq tushunishi lozim. Men ham do'stim singari ingliz, rus tillarini mukammal o'rganishga bel bog'laganman.

Inson orzulari bois uzoqlarni ko'zlaydi, unga talpinib, oldiga qo'ygan maqsadlari sari intiladi. Kamronbekning ham, Salimbekning ham kela-jakdagi rejalarini ularga qanot bo'lib, bu ikki yosh yuksaklarga parvoz qilishlarini, barcha orzularining ijobatini tiladik.

Ozoda TURSUNBOYEVA



«BIZ – CHEMPION» LOYIHASIDA TOSHKENT VILOYATI G'OLIB

Joriy yilning 22-23-iyun kunlari Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida joylashgan «Yoshlar oromgohi»da korxonada, tashkilot va muassasalardagi O'zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilot a'zolari o'rtasida «Biz - chempion» shiori ostida ilk marotaba «Mega sport» musobaqasi o'tkazildi.

BOBUR – JAHON CHEMPIONI

Bobur Ahmadaliyev Farg'ona shahridagi respublika olimpiya zaxiralari kollejida sportning akrobatika turi bilan shug'ullanib keladi.

Uchinchi bosqich o'quvchisi Boburning muvaffaqiyatlarida murabbiy Abdulaziz Turg'unovning hissasi katta. Murabbiy shogirdiga akrobatika sir-sinoatlarini qunt bilan o'rgatayapti. Bunday izlanish va intilish yosh sportchini Olimp cho'qqilari sari chorlamoqda. Yaqinda Bolgariyada o'tkazilgan akrobatika bo'yicha jahon chempionatida 44 ta mamlakatdan tashrif buyurgan 300 nafardan ziyod sportchi orasida g'oliblik uchun astoydil kurash olib bordi. Mahorat ko'rigida o'zbekistonlik yosh sportchiga omad kulib boqdi. Chempionatda sinxron sakrash yo'nalishida g'oliblikni qo'lga kiritib, jahon chempioni, degan yuksak nomga sazovor bo'ldi.

Uning ezgu niyati kelgusida Olimpiada o'yinlarida ham qatnashib, g'oliblik shohsupasidan o'r in egallash.

Muhammadjon MAHMUDOV



Barcha viloyatlarimizdan tashrif buyurgan 10 nafardan sportchilar bellashgan mazkur musobaqa yakunlariga ko'ra 1-o'rin Toshkent viloyati, «Maksam – Chirchiq» AJ sportchilariga nasib etdi. Sirdaryo viloyati Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi 2-o'rin, 3-o'rin esa Qashqadaryo viloyati, «Dehqonobod kaliy zavodi» MCHJ jamoalariga nasib etdi.

Musobaqa O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan tayinlangan 10 nafar hakamlar tomonidan kuzatib borildi. G'olib jamoalar O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda homiy tashkilotlarning diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

POYTAXTLIK SPORTCHILAR 7 TA MEDALNI QO'LGA KIRITDI

Poytaxtimizda sinxron suzish bo'yicha jahon seriyasining so'nggi – 10-bosqichi yuqori saviyada o'tkazildi.

«Saxovat sport servis» suzish havzasi mezbonlik qilgan musobaqada Bolgariya, Meksika, Germaniya, Slovakiya, Qozog'iston va O'zbekiston mamlakatlaridan sportchilar ishtirok etishdi.

E'tiborlisi, uch kun davom etgan musobaqa yakunlariga ko'ra, sportchilarimiz 7 ta medal qo'lga kiritishdi. 4 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza medali terma jamoamiz sportchilari uchun umumjamoa hisobida 1-o'rinni olishlari uchun yetarli bo'ldi.

2- va 3-o'rinni mos ravishda Meksika va Slovakiya terma jamoasi sportchilariga nasib qildi.

Muhammadsodiq ALIMOV



«QIRMIZI OLMA»NI KO'RIB...

Ta'til kunlarimizni yanada mazmunli o'tkazish maqsadida yaqinda dugonalarim bilan O'zbek Milliy akademik drama teatrida namoyish etilgan «Qirmizi olma» spektaklini tomosha qildik. Spektaklning g'oyasiga ko'ra, inson nafsini tiya bilishi, halol bo'lmog'i va ichki go'zallikni qadrlab yashamog'i lozim.

Suvda oqib kelayotgan olmani tishlagan yigit uning egasini rozi qilmoq uchun hatto o'zi ko'rmagan, «ko'r-soqov» deya ta'rifi bilan qizga uylanishga ko'nadi. Ammo kelin go'zal va aqli raso bir qiz ekanini bilgach, tomoshabin ham lol qoladi.

Demak, hayotda halol bo'lsak, go'zal rizq va nasibani Yaratganning o'zi bizga ziyoda qilib beraveradi.

Nigina BEKPO'LATOVA,
Respublika televideniye va radio kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Deyarli har kuni dunyodagi tengdoshlaringiz hayotiga doir turli yangiliklar haqida eshitasiz. Belgiyada o'rta maktabni 1,5 yilda tamomlagan sakkiz yoshli bola haqida o'qib, kim ham «Ofarin» aytmaydi, deysiz!

MAKTABNI BIR YARIM YILDA TAMOMLAGAN BOLAKAY

Yana-chi, Laurent Simons ismli bu bola endilikda universitetda o'qishni davom ettirar ekan. «BBC» ma'lumotlariga ko'ra, bolakayning bilim saviyasi IQ testi bo'yicha 145 ballga teng. Belgiyaning «RTBF» radiosiga bergan intervyusida 8 yoshli bolaning se-

vimli fani matematika ekani va kelajakda shifokor yoki astronom bo'lishni orzu qilishi haqida so'zlab berdi. Ta'tildan so'ng u universitetning eng kichik talabasi bo'lsa, ajab emas!



ANTIQA O'RINDIQLAR

Yozning jazirama kunlarida toza havoda sayr qilib, dam olish maskanlaridagi o'rindiqlarda hordiq chiqarishni istaymiz. Ayniqsa, siz o'tirgan o'rindiq ajoyib va betakror ko'rinishda bo'lsa, kayfiyatingiz ko'tarilib, zavqingiz oshadi. Keling, bugun sizlar bilan ana shunday ajoyib o'rindiqlar joylashgan mamlakatlar bo'ylab sayohatga chiqamiz.

1 San Fransiskodagi dam olish maskanlarining birida joylashgan o'rindiqlar betakror ko'rinishi bilan bolalarning diqqatini o'ziga jalb etgan.



2 Bambuk yog'ochidan yasalgan o'rindiq sizga bir bog' o'tinni eslatayotgan bo'lsa, ajabmas.



3 Amerikaning Sietl shahrining xiyobonlarida daraxt ko'rinishidagi o'rindiqlar ham joy olgan.



4 Rangli qalamlardan iborat bu o'rindiqda hordiq chiqarish ijodkorga yanada ilhom bag'ishlaydi.



5 Turkiyaning Istanbul shahridagi mazkur o'rindiq asl kitob ko'rinishidan hecham qolishmaydi.




6 Bunday o'rindiqlardan yana bir nechtasi poytaxtimizning Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri ortidagi maydonda ham o'rnatildi.



Internet manbalari asosida ODINA tayyorladi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



Kitobsevar o'quvchilar, yozgi ta'tilda qanday kitoblar bilan oshno bo'lmoqdasiz? Quyidagi aql mashqini diqqatingizga havola etmoqdamiz. Aylanma krossvordning 4 savolini to'g'ri topa olsangiz, belgilangan 5-raqamda yozuvchi Asqad Muxtorning pyesasi nomi kelib chiqadi.

1. P. Qodirov qissasi. 2. Adib Said Ahmad hajviyasi (2012-yil). 3. Oybek asari. 4. G'ulom Zafariy pyesasi (1920-yil).

Tuzuvchi: Anvar MIRZAZODA

8

9-iyul 2018

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom

Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeksi: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 28712
Buyurtma - V 1953

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08